

**AN'ANAVIY O'QITISH USULLARI ORQALI O'ZBEKISTON OLIY O'QUV YURLARI  
TALABALARINING IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI  
RIVOJLANTIRISHDAGI ASOSIY MUAMMOLARNI ANIQLASH**

**(ispak tili materiallari asosida)**

**Anastasiya Aleksandrovna TKACHEVA**

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Samarqand davlat chet tillar instituti

Samarqand, O'zbekiston

**ИДЕНТИФИКАЦИЯ ОСНОВНЫХ ПРОБЛЕМ В РАЗВИТИИ  
СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ВУЗОВ УЗБЕКИСТАНА  
ПОСРЕДСТВОМ ТРАДИЦИОННЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ**

**(на материале испанского языка)**

**Anastasija Aleksandrovna TKACHEVA**

Кандидат филологических наук. доцент

Самаркандский государственный институт иностранных языков

Самарканд, Узбекистан

**IDENTIFICATION OF THE MAIN PROBLEMS IN THE DEVELOPMENT OF SOCIO-CULTURAL COMPETENCE OF UNIVERSITY STUDENTS IN UZBEKISTAN  
THROUGH TRADITIONAL TEACHING METHODS**

**(based on the material of the Spanish language)**

**Anastasia Aleksandrovna TKACHEVA**

Candidate of Philological Sciences, Associate Professor

Samarkand State Institute of Foreign Languages

Samarkand, Uzbekistan [anastasi72@yandex.ru](mailto:anastasi72@yandex.ru)

UDC (УО'К, УДК): 378.016: 811.134.2

**For citation (iqtibos keltirish uchun,  
для цитирования):**

Tkacheva A.A. An'anaviy o'qitish usullari orqali o'zbekiston oliv o'quv yurtlari talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishdagi asosiy muammolarni aniqlash (Ispan tili materiallari asosida) // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 6 (53). — B. 202-219.

<https://doi.org/10.36078/1704094141>

**Received:** October 25, 2023

**Accepted:** December 17, 2023

**Published:** December 20, 2023

**Annotatsiya.** Maqola ispan tilini o'qitishning an'anaviy usullari orqali O'zbekiston oliv o'quv yurtlari talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishdagi asosiy muammolarni aniqlashga bag'ishlangan. An'anaviy o'qitish usullaridan foydalanish, garchi uning afzalliklari bo'lsa-da, ko'pincha til va madaniyatning ijtimoiy-madaniy jihatlariga yetarlicha e'tibor bermaydi. Ushbu holat madaniy va lingvistik to'siqlarni keltirib chiqaradi hamda talabalarga ispan tilining ijtimoiy-madaniy jihatlarini o'zlashtirishni qiyinlashtiradi va ularning ispan tilida so'zlashadigan muhitda muloqot va o'zaro ta'sir qilish imkoniyatlarini cheklaydi. Ushbu maqola doirasida talabalar ispan tilini o'qitishda duch keladigan asosiy muammolar tahlil qilindi. Asosiy muammolarga madaniy farqlar, til to'siqlari, amaliy tajribaning yetishmasligi va an'anaviy o'qitish usullarida interfaoliik yetishmasligi kiradi. O'zbekiston va ispanzabon davlatlar o'rtasidagi madaniy qadriyatlar va urf-odatlardagi tafovutlar ispan muhiti til va madaniyatining ijtimoiy-madaniy jihatlarini tushunishda qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Bundan tashqari, til farqlari va amaliy tajribaning yetishmasligi ham ijtimoiy-madaniy ko'nikmalarni rivojlantirishni qiyinlashtiradi. Mazkur muammolarni hal qilish uchun O'zbekiston madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



holda, talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishga hissa qo'shadigan ispan tilini o'qitishning yangi usullaridan foydalanish mezonlari taklif qilingan. Ushbu uslblarg'a darsdan tashqari tadbirdarni tashkil etish, asl materiallardan foydalanish, virtual o'qitish va onlayn resurslar, zamонавиј texnologiyalarni birlashtirish, ispan mutaxassislarining ma'ruzalarini va mahorat darslarini tashkil etish va boshqa jihatlar kiradi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy-madaniy kompetentlik; an'anaviy o'qitish usullari; innovatsion o'qitish usullari; madaniyatlararo muloqot.

**Аннотация.** Статья посвящена выявлению основных проблем в развитии социокультурной компетенции студентов вузов Узбекистана через традиционные методы обучения испанскому языку. Использование традиционных методов обучения, хотя и имеет свои преимущества, часто не уделяет достаточного внимания социокультурным аспектам языка и культуры. Это создает культурно-языковые барьеры, которые затрудняют студентам освоение социокультурных аспектов испанского языка и ограничивают их возможности коммуникации и взаимодействия в испаноязычной среде. В рамках этой статьи проведен анализ основных проблем, с которыми сталкиваются студенты при обучении испанскому языку. Основные проблемы включают в себя культурные различия, языковые барьеры, отсутствие практического опыта и недостаток интерактивности в традиционных методах обучения. Различия в культурных ценностях и обычаях между Узбекистаном и испаноязычными странами создают трудности в понимании социокультурных аспектов языка и культуры испанской среды. Кроме того, языковые различия и недостаток практического опыта также затрудняют освоение социокультурных навыков. Для решения этих проблем автор статьи предлагает использовать новые методики обучения испанскому языку, которые учитывают особенности культуры Узбекистана и способствуют развитию социокультурной компетенции студентов. Эти методики включают в себя организацию внеклассных мероприятий, использование аутентичных материалов, виртуальное обучение и онлайн-ресурсы, интеграцию современных технологий, организацию гостевых лекций и мастер-классов и другие аспекты.

**Ключевые слова:** социокультурная компетенция; традиционные методы обучения; инновационные методы обучения; межкультурная коммуникация.

**Annotation.** This scientific article is devoted to identifying the main problems in the development of socio-cultural competence of university students in Uzbekistan through traditional methods of teaching Spanish. The use of traditional teaching methods, although it has its advantages, often does not pay enough attention to the socio-cultural aspects of language and culture. This creates cultural and linguistic barriers that make it difficult for students to master the socio-cultural aspects of the Spanish language and limit their opportunities for communication and interaction in a Spanish-speaking environment. Within the framework of this article, the analysis of the main problems faced by students when teaching Spanish is carried out. The main problems include cultural differences, language barriers, lack of practical experience and lack of interactivity in traditional teaching methods. Differences in cultural values and customs between Uzbekistan and Spanish-speaking countries create difficulties in understanding the socio-cultural aspects of the language and culture of the Spanish environment. In addition,

language differences and lack of practical experience also make it difficult to master socio-cultural skills. For solving these problems, the author of the article suggests using new methods of teaching Spanish, which take into account the peculiarities of the culture of Uzbekistan and contribute to the development of socio-cultural competence of students. These methods include the organization of extracurricular activities, the use of authentic materials, virtual learning and online resources, the integration of modern technologies, the organization of guest lectures and master classes, and other aspects.

**Keywords:** socio-cultural competence; traditional teaching methods; innovative teaching methods; intercultural communication.

**Kirish.** Zamonaviy globallashgan dunyoda ijtimoiy-madaniy kompetentlik shaxsni shakllantirish va rivojlantirishda, ayniqsa chet tilini o'qitish sharoitida muhim rol o'ynaydi hamda chet tilidagi muloqot va hayotning turli sohalarida boshqa madaniyatlar vakillari bilan o'zaro munosabatlarning ahamiyati bilan bog'liq. Hozirgi vaqtida O'zbekistondagi oliy o'quv yurtlari talabalari, ayniqsa, chet tillarni, shu jumladan, ispan tilini o'rganishda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish zaruriyatiga duch kelishmoqda.

Biroq ushbu kompetentlikning ahamiyatiga qaramay, ispan tilini o'rganayotgan O'zbekiston oliy o'quv yurtlari talabalari an'anaviy o'qitish usullaridan foydalangan holda, ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishda turli muammolar bilan to'qnashmoqda. Madaniy jihatlariga e'tibor bermaslik, o'quv jarayonida interfaollik va kommunikativlikning yetarli emasligi, shuningdek, asl materiallar va real vaziyatlarda tilni amaliy qo'llash imkoniyatlaridan foydalanishning cheklanganligi talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentlikning yetarli darajada rivojlanmaganligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardir.

Maqolaning maqsadi ispan tilini o'rganish misolida O'zbekiston oliy o'quv yurtlari talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishda an'anaviy o'qitish usullaridan foydalanishda yuzaga keladigan asosiy muammolarni aniqlashdan iborat. Ushbu muammolarni tahlil qilish va tegishli tavsiyalarni taklif qilish orqali maqola talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini yanada samarali rivojlantirishga yordam beradigan o'qitish usullariga yangi nuqtai nazar berishga intiladi.

Tadqiqot natijalari ispan tilini o'rganishda ishtirok etadigan o'qituvchilar, o'quv dasturlarini ishlab chiquvchilar va universitet talabalari uchun qimmatli ma'lumotlarni taqdim etishi kutilmoqda. Ular ushbu natijalardan o'quv jarayonini takomillashtirish va O'zbekistondagi oliy o'quv yurtlari talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini samarali rivojlantirish uchun innovatsion didaktik vositalarga asoslangan yangi yondashuvlarni yaratish uchun foydalanishlari mumkin.

**Asosiy qism.** Ispaniya, Meksika, Argentina, Kolumbiya hamda ispan tili rasmiy til bo'lgan yoki sezilarli darajada tarqalgan boshqa mamlakatlar madaniyati ushbu mamlakatlarning tili,

adabiyoti, san'ati, musiqasi, urf-odatlari, an'analari, mentaliteti va tarixini o'z ichiga oladi.

Ispanzabon mamlakatlar tarixi Xristofor Kolumbning Amerikani kashf etishi, mustamlakachilik hukmronligi, mustaqillik uchun kurash va zamonaviy milliy davlatlarning shakllanishi kabi muhim tarixiy voqealar bilan chambarchas bog'liq. Ispaniya tarixi jahon va Yevropa tarixining rivojlanishiga chuqur ta'sir ko'rsatgan shaxslar, siyosiy va ijtimoiy harakatlar bilan to'la.

Ispanzabon mamlakatlarning madaniy hissalarini turli sohalarda namoyon bo'ladi. Ispan tili gapiruvchilar soni bo'yicha xitoy tilidan keyin ikkinchi o'rinda turadi hamda BMTning oltita rasmiy tillaridan biri hisoblanadi. O'rta asrlarning dastlabki davrlaridan boshlab ispan adabiyoti ko'plab taniqli yozuvchilar va asarlarni dunyoga tanitdi: Migel De Servantesning "Don Kixot" asari yoki Gabriel Garsiya Markesning "Yolg'izlikning yuz yili" kabi.

Ispan tilida gapiruvchi mamlakatlar san'atga qo'shgan ulkan hissasi bilan mashhur, shu jumladan, Ispaniyaning Oltin asr rassomchilik san'ati, Kataloniya modernizmi (Gaudi) yoki Meksika "Mural" (devordagi) rasmlari kabi taniqli san'at maktablari. Ispanzabon mamlakatlar, shuningdek, musiqa, raqs (Flamenko), oshpazlik va kino bilan mashhur bo'lib, butun dunyo bo'ylab millionlab odamlarning e'tiborini tortadi.

Ispan tilida so'zlashadigan mamlakatlar madaniyatini o'rgatish bir necha sabablarga ko'ra O'zbekiston filologiya oliy o'quv yurtlari talabalarini tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Birinchidan, bunday bilimlar talabalarga ispan madaniyatini to'g'risida chuqur tushuncha beradi va ularning madaniyatlararo kompetentligini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu mamlakatlarning madaniy xususiyatlarini bilish va tushunish talabalarga o'qish sharoitida ham, real hayotda ham ispan tili sohiblari bilan yanada muvaffaqiyatli muloqot qilish imkonini beradi.

Ikkinchidan, ispanzabon mamlakatlar madaniyatini o'rganish talabalarga jahon madaniy merosi haqidagi bilimlarini kengaytirishga imkon beradi. Ispan tilida so'zlashadigan mamlakatlar buyuk rassomlar, yozuvchilar, bastakorlar va boshqa ko'plab taniqli shaxslarni o'z ichiga olgan boy madaniy merosi bilan mashhur. ularning madaniyatini o'rganish nafaqat nufuzli tilni rivojlantirishga yordam beradi, balki talabalarga jahon madaniyatining xilma-xilligi va boyligiga sho'ng'ish uchun noyob imkoniyat yaratadi.

O'zbekiston filologik oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy-madaniy kompetentlik turli xalqlar va millatlarning madaniy xususiyatlari va qadriyatlarini bilish va tushunishni, har xil madaniy kontekstlarga moslashish va turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston filologik oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish bir qator

afzalliklarga ega. Birinchidan, bunday o‘rganish xorijiy til va adabiyotni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Madaniy xususiyatlarni bilish talabalarga ispan tilida so‘zlashadigan mamlakatlar tilida adabiy matnlar va san‘at asarlarini yaxshiroq tushunish va tahlil qilishga yordam beradi.

Ikkinchidan, ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish madaniyatlararo aloqa ko‘nikmalarini rivojlantiradi va boshqa madaniyatlar vakillari bilan yanada uyg‘un va konstruktiv o‘zaro munosabatlarni yaratishga yordam beradi. Ijtimoiy-madaniy kompetentlikni bilgan talabalar madaniyatlararo mojarolarni yanada muvaffaqiyatli hal qilishadi hamda samarali hamkorlik va o‘zaro tushunish uchun sharoit yaratadilar.

Shunday qilib, O‘zbekiston filologik oliv o‘quv yurtlarida ispanzabon madaniyatini o‘qitish xorijiy madaniyatni o‘zlashtirish, madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish, shuningdek, talabalarni ko‘p millatli va globallashgan muhitda muvaffaqiyatli muloqot va o‘zaro hamkorlikka tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlik chet tilini o‘rganish jarayonida asosiy tarkibiy qismlardan biri bo‘lib, insonning boshqa madaniyatlar vakillari bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish, o‘rganilayotgan til ishlatalidigan jamiyatda qabul qilingan vaziyatlar, me’yorlar va qadriyatlarni tushunish qobiliyatini anglatadi. Ijtimoiy-madaniy kompetentlik chet tillar muhitida muvaffaqiyatli muloqot qilish, tushunish va moslashish uchun zarurdir.

Chet tilini o‘rganishda ijtimoiy-madaniy kompetentlikning roli talabalarning til bilan bog‘liq ijtimoiy-madaniy jihatlarni idrok etish va tushunish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat bo‘lib, talabalarning muloqot qobiliyatlarini boyitishga, bir vaqtning o‘zida lingvistik va madaniy kompetentliklarni rivojlantirishga imkon beradi. Ijtimoiy-madaniy kompetentlik talabalarga chet el madaniyatini chuqurroq tushunishga, uning tarixi, urf-odatlari, an‘analari va xulq-atvor me’yorlarini o‘rganishga yordam beradi. Shuningdek, u bag‘rikenglik, hurmat hamda madaniyatlararo farqlar va kommunikativ vaziyatlarga moslashish qobiliyatini rivojlantiradi.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlik globalashuv sharoitida madaniyatlararo muloqot va ta’lim vazifalarini amalga oshirishda ham muhim tarkibiy qism bo‘lib, talabalarga nafaqat chet tili sohiblari bilan samarali muloqot qilish, balki ularni ma’lum bir madaniyat vakillari sifatida ko‘rish, madaniyatlararo farqlarni va madaniy omillarning muloqotga ta’sirini tushunish va baholash imkonini beradi.

Shunday qilib, ijtimoiy-madaniy kompetentlik chet tilini o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi hamda boshqa til va madaniyatni chuqurroq tushunishga, shuningdek, madaniyatlararo muhitda muvaffaqiyatli aloqa va o‘zaro ta’sirga yordam beradi.

An‘anaviy o‘qitish usullari ma’ruzalar, darsliklar, grammatik mashqlar va nazorat vazifalariga asoslangan yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish nuqtai

nazaridan an'anaviy o'qitish usullari cheklangan bo'lsa ham muhim rol o'ynaydi.

An'anaviy o'qitish usullarining asosiy afzalliklaridan biri — ularning tizimliligi va aniq tuzilishdan iboratligi. O'qituvchi kerakli bilimlarni beradi, talabalarga tilning grammatikasi va so'z boyligini o'rganishga yordam beradigan mashqlar va topshiriplarni taklif qiladi. Bu ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish uchun muhim asos bo'lgan til ko'nikmalarining asosiy darajasini ta'minlaydi.

Biroq an'anaviy o'qitish usullari ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishda o'zlarining kamchiliklariga ega bo'lishi mumkin. Asosan tilning aspektlariga ustuvor ahamiyat beriladi, ijtimoiy-madaniy kompetentlikning ajralmas qismi bo'lgan madaniyat va madaniyatlararo aloqa jihatlari kam yoritilishi yoki yetarlicha e'tiborga olinmasligi mumkin. Ushbu jihat boshqa madaniyatdagi ijtimoiy me'yorlar, urf-odatlar, an'analar va muloqot xususiyatlari to'g'risida bilimlarning yetishmasligiga olib keladi.

An'anaviy o'qitish usullarining boshqa cheklovi asl hayotiy vaziyatlardan foydalangan holda faol kommunikativ o'zaro ta'sirning yo'qligidan iborat. Sinfxonada talabalar odatda chet tili sohiblari hayotidagi asl vaziyatlar bilan aloqasi bo'lмаган sun'iy materiallar bilan ishlaydi. Bunday holat turli muloqot vaziyatlariga moslashish, asl nutq va tilni ijtimoiy-madaniy tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon bermaydi.

Bularning barchasi an'anaviy o'qitish usullarini ijtimoiy-madaniy jihatlarni faol ravishda o'z ichiga olgan innovatsion yondashuvlar bilan to'ldirish zarurligini ko'rsatadi, tilni amaliy qo'llash hamda ona tili va madaniyati bilan o'zaro aloqada bo'lish imkoniyatini beradi. Bunday o'zgarishlar talabalarga o'zlarining ijtimoiy-madaniy kompetentliklarini rivojlantirishga va madaniyatlararo muhitda asl aloqa vaziyatlariga tayyor bo'lishga yo'l qo'yadi.

Olygohlar talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishdagi muammolarni aniqlashga bag'ishlangan adabiyotlarning tahlili ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlarning muhim qismi hisoblanadi. Tadqiqot davomida quyidagi manbalar tahlil qilingan:

1. T. V. Boldirevaning ilmiy maqolasida (1) oly o'quv yurtida chet tillarini o'qitish kontekstida ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishning asosiy muammolari muhokama qilinadi. Ijtimoiy-madaniy jihatlarning o'quv dasturlariga yetarlicha qo'shilmasligi va til bilimlarini real hayotda amaliy qo'llamasligiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2. G. N. Slepsova olib borgan tadqiqot (6) chet tilini o'rganish jarayonida universitet talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish muammolarini ta'kidlaydi. Muallif asl materiallardan faol foydalanmasligi, o'quv dasturlarining kommunikativ va ijtimoiy-madaniy yo'nalishining yetarli emasligi

hamda o‘quv jarayonida ijtimoiy-madaniy jihatlardan samarasiz foydalanish va hisobga olishga e’tibor qaratadi.

3. E. A. Malyutina va O. G. Oberemkolarining ilmiy maqolasida (4) mualliflar chet tilini o‘rganishda talabalarining madaniy kompetentligini rivojlantirish muammolari va yo‘llarini ko‘rib chiqadi. Chet tilini o‘rganish jarayonida madaniy xususiyatlarni yetarli darajada tushunmaslik va hisobga olmaslik bilan bog‘liq to‘siqlar, shuningdek, adabiy asarlarni tahlil qilish va talqin qilishdagi muammolar tahlil qilinadi.

4. S. Sannikova va N. Paxomovalarning tadqiqotida (5) mualliflar chet tilini o‘rganishda universitet talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish muammolarini o‘rganadilar, shuningdek, ularni hal qilish yo‘llarini taklif qiladilar. Asl vaziyatlarda tilni amaliy qo‘llashning yo‘qligi, chet tili sohiblari bilan o‘zaro munosabatlardagi cheklovlar hamda ijtimoiy-madaniy xususiyatlarni yetarli darajada tushunmaslik bilan bog‘liq to‘siqlar tahlil qilinadi.

5. Z. I. Konnova va G. V. Semyonovalarning ilmiy maqolasida (3) chet tilini o‘rganish jarayonida universitet talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish muammolari muhokama qilinadi. Haqiqiy materiallardan foydalanishdagi cheklovlar, kommunikativ amaliyotning yetishmasligi va o‘quv jarayonida ijtimoiy-madaniy jihatlarga yetarlicha e’tibor berilmasligi ko‘rib chiqiladi.

6. O. N. Igna tomonidan olib borilgan tadqiqotda (2) muallif universitet talabalarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikning rivojlanish darajasini tahlil qiladi va uni takomillashtirishning mumkin bo‘lgan usullarini o‘rganadi, an’anaviy o‘qitish usullaridan foydalanishda cheklovlargacha e’tibor beradi, shuningdek, ijtimoiy-madaniy kompetentligini yanada samarali rivojlantirish strategiyasini taklif qiladi.

Universitet talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishdagi muammolarni aniqlash bo‘yicha adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida ushbu muammolarning umumiy tendensiyalari va asosiy sabablari aniqlandi. Asosan, muammolar ijtimoiy-madaniy jihatlarning ta’lim dasturlariga qo‘silmashligi, amaliy yo‘naltirganligining yetarli emasligi, asl materiallar va kommunikativ vaziyatlardan foydalanishning cheklanganligi bilan bog‘liq. Mazkur tadqiqot doirasida ilmiy adabiyotlar tahlili natijalaridan O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlari talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishdagi muammolarni aniqlash va yanada tahlil qilish uchun foydalaniladi.

O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlari talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishda madaniy va lisoniy to‘siqlarining o‘rnini muhim bo‘lishi mumkin. Keyinchalik o‘quv jarayonining muvaffaqiyati va tilning ijtimoiy-madaniy jihatlarini o‘zlashtirishga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan ba’zi jihatlar quyidagilar:

1. Madaniy qadriyatlar va urf-odatlardagi farqlar. O‘zbekistondagi madaniy qadriyatlar va urf-odatlar ispan

madaniyatidan sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Ushbu bo'shliq talabalar uchun ispan tili va madaniyatining ijtimoiy-madaniy jihatlarini tushunishga va moslashishga harakat qilishda to'siqlarni keltirib chiqarishi mumkin. O'z madaniyati me'yorlariga rioya qilish yangi ijtimoiy-madaniy me'yorlarni o'zlashtirishni qiyinlashtirishi hamda talabalarning chet tilida so'zlashadigan muhitda samarali ishslash qobiliyatiga ta'sir qilishi mumkin.

2. Til to'siqlari. O'zbek tili va ispan tili o'rtasidagi farqlar talabalar uchun til to'siqlarini yaratishi mumkin. Tilning tuzilishi, so'z boyligi, grammatikasi va talaffuzi har xil bo'lishi yangi tilni o'zlashtirishni hamda boshqa til doirasida madaniy me'yorlar va qadriyatlarni qabul qilishni qiyinlashtiradi. Ushbu jihat talabalarga matnlarni tushunish, tinglash va ispan tilida gapirishni qiyinlashtirishi hamda ispan tilida so'zlashadigan muhitda ijtimoiy-madaniy aloqani to'xtatishi mumkin.

3. Amaliy tajribaning yetishmasligi. Ispan tili sohiblari bilan muloqot qilish va ispan madaniyatiga sho'ng'ish bo'yicha amaliy tajribaning yo'qligi ham talabalar uchun ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishga to'sqinlik qilishi mumkin. O'zbekistonning geografik va madaniy cheklovlarini tufayli amaliy tajriba hamda ispan tili va madaniyati kontekstini tushunish imkoniyati cheklanishi mumkin.

4. An'anaviy o'qitish usullarining formati. Ko'pincha grammatika va so'z boyligiga yo'naltirilgan jamoaviy mashg'ulotlar va o'quv materiallarini o'qitishning an'anaviy usullari tilning ijtimoiy-madaniy jihatlariga va turli madaniy kontekstlarda muloqot qilishni o'rganishga yetarlicha e'tibor bermasligi mumkin. Ushbu holat talabalarning hayotiy vaziyatlarda tilni qanday qo'llashni o'rganish hamda ijtimoiy-madaniy afzalliliklari va urf-odatlarini ifoda etish imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

Ushbu masalalarni inobatga olgan holda, talabalar an'anaviy o'qitish usullaridan foydalangan holda ispan tilining ijtimoiy-madaniy jihatlarini o'zlashtirishda qiyinalishi sabablarini tushunishga yordam beradi. Bunday muammolarni tushunish O'zbekiston oliv o'quv yurtlari talabalarining madaniy va lisoniy to'siqlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan samarali strategiya va o'qitish usullarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ispan tilini tadqiqot obyekti sifatida tanlash uning O'zbekiston universitetlari talabalarini tomonidan o'rganilishi bilan bog'liq. Ispan tili ingliz va rus tillari bilan bir qatorda o'zbek ta'lim kontekstida ko'p o'rganilayotgan til hisoblanadi. Ushbu tanlov, shuningdek, tadqiqot natijalarini boshqa tillar va madaniyatlar bilan taqqoslash va umumlashtirish imkoniyatiga bog'liq.

Tadqiqot doirasida ma'lumotlarni yig'ishning quyidagi usullari qo'llanilgan:

— So'rovnama: ispan tilini o'rganayotgan Samarqand davlat chet tillar instituti talabalarini, magistrantlari va doktorantlari an'anaviy ta'lim jarayonida ijtimoiy-madaniy kompetentligini

rivojlantirish borasidagi fikrlari va tushunchalarini aniqlash maqsadida so‘rovdan o‘tkazildi. So‘rovnomalari muammolar va taklif etilayotgan yechimlarni aniqlashga qaratilgan savollardan iborat.

— Kuzatish: an’anaviy o‘qitish usullaridan foydalangan holda ispan tili darslari kuzatildi. Kuzatish talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishda ushbu usullarning asosiy xususiyatlari va cheklovlarni aniqlashga imkon berdi.

To‘plangan ma’lumotlar sifatli va miqdoriy tahlil qilindi. Sifatli tahlil so‘rovnama savollariga javoblarni tizimli o‘rganish va tasniflash, shuningdek, kuzatuvlarni tahlil qilish orqali amalga oshirildi. Miqdoriy tahlil muhim korrelyatsiyalar va aloqalarni aniqlash uchun statistik ma’lumotlarni qayta ishlashni o‘z ichiga olgan.

SamDChTI talabalari, magistrantlari va doktorantlari maqsadli tadqiqot guruhi sifatida tanlangan, chunki ular mintaqaning oliy ma’lumotni oluvchi va ispan tilini o‘rganuvchi asosiy auditoriyasi hisoblanadi. Ularning tajribasi va fikri an’anaviy o‘qitish usullaridan foydalangan holda ispan tilining ijtimoiy-madaniy jihatlarini o‘rganish jarayonida duch keladigan muammolarni tushunish va aniqlash uchun muhimdir.

Ushbu usullarni va universitet talabalarining maqsadli guruhini tanlash ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarni qamrab oluvchi umumiylar manzarani shakllantirishga va ushbu kontekstda an’anaviy o‘qitish usullarining samaradorligini baholashga imkon berdi. Tadqiqotning uslubiy qismi natijalari talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishdagi muammolarni to‘liqroq tushunish va keyinchalik tahlil qilish uchun ishlatiladi.

So‘rov natijalari:

— Respondentlarning umumiylar soni Samarqand davlat chet tillar institutining ispan tilini asosiy mutaxassislik sifatida o‘rganayotgan 100 nafar talaba, magistrant va doktorantni tashkil etdi.

— Talabalarining maqsadli guruhini qamrab olishga turli kurslar va o‘quv dasturlaridan tasodifiy tanlab olish orqali erishildi.

Respondentlarning demografik ko‘rsatkichlari:

— Respondentlarni 75 % ayollar, 25 % erkaklar tashkil etadi.

— Respondentlarning yoshi 18 yoshdan 25 yoshgacha bo‘lgan talabaldan iborat.

— Respondentlarning aksariyati (80%) bakalavriat talabalari, 15% magistrantlar va 5 % doktorantlardan hisoblanadi.

1-jadval

### **Talabalarining fikrlari va tushunchalarini aks ettiruvchi har bir savolga javoblarning foizli nisbati**

T/r	Savollar	Javoblar nisbati (foizlarda)
1	Sizningcha, ispan tilini o'rganishda ijtimoiy-madaniy jihatlar qanday rol o'yynaydi?	- Juda muhim rol: 42% - Muhim rol: 37% - O'rtacha rol: 16% - Kichik rol: 5%
2	Siz tez-tez uchraydigan ispan tilini o'qitishning an'anaviy usullari qanday?	- Ma'ruzalar va darsliklar: 58% - Grammatik mashqlar: 28% - Nazorat vazifalari: 14%
3	Darsdan tashqari muhitda ispan tilidan amaliy foydalinish uchun sizga qaysi davriylik bilan imkoniyatlar beriladi?	- Muntazam: 22% - Ba'zan: 53% - Kamdan-kam hollarda: 25%
4	An'anaviy o'qitish usullaridan foydalanganida ispan tilining ijtimoiy-madaniy jihatlarini o'rganishda qanday qiyinchiliklarga duch kelasiz?	- Amaliy imkoniyatlarning yetishmasligi: 45% - Madaniyat haqida ma'lumot yetishmasligi: 32% - Ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish uchun yetarlicha vaqt bo'lmasligi: 15% - Ijtimoiy-madaniy jihatlarni tizimsiz o'rganish: 8%
5	Sizningcha, ijtimoiy-madaniy kompetentligini yanada samarali rivojlantirish uchun an'anaviy o'qitish usullariga qanday o'zgarishlar kiritilishi mumkin?	- Ko'proq asl materiallar va topshiriqlarni integratsiya qilish: 48% - Til muhitida yashashni tashkil etish yoki amaliyot o'tkazish: 32% - Qo'shimcha amaliy mashqlar va kommunikativ topshiriqlarini kiritish: 15% - Multimedia texnologiyalaridan ko'proq foydalish: 5%

Ushbu so'rov natijalari talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishga oid fikrlari va tushunchalarini aks ettiradi hamda ispan tilini o'qitishning an'anaviy usullaridan foydalangan holda O'zbekiston oliv ta'lim tizimida ushbu kompetensiyani rivojlantirishdagi muammolarni aniqlash nuqtai nazaridan tahlil qilish va muhokama qilish uchun asos bo'lishi mumkin.

Kuzatish usuli an'anaviy o'qitish usullaridan foydalangan holda ispan tilini o'qitish jarayonini o'rganish hamda O'zbekiston oliv o'quv yurtlari talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish bilan bog'liq muammolarni aniqlash uchun ishlataligil.

#### 2-jadval Kuzatish usulining asosiy bosqichlari va xususiyatlari

T/r	Kuzatish jarayoning bosqichlari va natijalari	Izoh
1	Kuzatish usulining qisqacha tavsifi:	- Kuzatish an'anaviy o'qitish usullaridan foydalangan holda ispan tilidagi darslar yoki o'quv mashg'ulotlari kontekstida o'tkazildi. - Kuzatuvchi tadqiqotchi ispan tili darslarida qatnashdi hamda o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, shuningdek, ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish uchun foydalilaniladigan faoliyat va topshiriqlarni qayd etdi.

2	Ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish bilan bog'liq asosiy kuzatiladigan jihatlar:	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Talabalarning madaniy jihatlarni tushunish va talqin qilish bilan bog'liq topshirqlarni bajarishdagi faoliyatni.</li> <li>- Ijtimoiy-madaniy mavzular va materiallarni namoyish etish va muhokama qilishga sarflanadigan vaqt miqdori.</li> <li>- Talabalar o'tasidagi o'zaro ta'sir darajasi va ularning yangi kommunikativ vaziyatlarga moslashish qibiliyati.</li> <li>- Ijtimoiy-madaniy ko'nikmalarni amaliy qo'llash uchun haqiqiy materiallardan foydalanish.</li> </ul>
3	Kuzatuv asosida aniqlangan ispanzabon davlatlar madaniyatini o'qitish uchun foydalanilgan asosiy metodlar:	<ul style="list-style-type: none"> <li>- O'qituvchilar ispanzabon mamlakatlar madaniyatining asosiy jihatlarini, tarixiy voqealarni taqdim etadigan ma'ruzalar, madaniy kontekstni chuqurroq tushunish uchun adapbiyot va san'at asarlarini tahlil qiladi.</li> <li>- Talabalar ispanzabon mamlakatlarning madaniy xususiyatlarini, urf-odatlarini muhokama qilishlari va tahlil qilishlari, madaniyatlararo ko'nikmalarni rivojlantirishlari hamda o'z bilimlari va tajribalari bilan o'rtoqlashishlari mumkin bo'lgan guruh ishlari va munozaralar.</li> <li>- Ispan tili sohiblarining nutqini tushunishni rivojlantirish, darsdan tashqari madaniy faoliyatni (raqs, oshpazlik) o'rganish, shuningdek, ispan tilida so'zlashadigan mamlakatlar madaniyati bilan bog'liq loyihalarni amalga oshirish uchun asl materiallarni (video, audio, matnlar) o'rganishni o'z ichiga olgan amaliy mashg'ulotlar.</li> </ul>
5	Kuzatish jarayonida aniqlangan muammolarni ko'rsatadigan holatlar:	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Sinfxonalar ichida ham, tashqarisida ham asl kommunikativ vaziyatlarda o'rganilayotgan tildan amaliy foydalanish imkoniyatlarining yetishmasligi.</li> <li>- Talabalarga ispan tilining madaniy jihatlarini tushunish va o'zlashtirishga imkon beradigan asl materiallar va resurslardan foydalanishning cheklanganligi.</li> </ul>

O'zbekiston oliy o'quv yurtlari talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishdagi aniqlangan muammolarning taqdimoti va tahlili an'anaviy ta'lim usullaridan foydalanishda talabalar duch keladigan asosiy to'siqlarni aniqlashga imkon beradi. Bu muammolardan ba'zilarni sanab o'tamiz:

		- Til va madaniyatning ijtimoiy-madaniy jihatlarini muhokama qilish va chuqr o'rganish uchun ajratilgan vaqtning yetishmasligi.
--	--	---

1. Ispan tilini o'qitishning an'anaviy usullari doirasida ijtimoiy-madaniy jihatlarga e'tibor bermaslik. Talabalar ispan tili bilan bog'liq ijtimoiy-madaniy muhit haqida ma'lumotga ega emas. O'quv materiallari va darslar odatda grammatika va so'z boyligiga qaratilgan bo'lib, madaniyat, urf-odatlar, an'analar va tilning amaliy qo'llanishi ikkinchi darajali bo'lib qoladi.

2. Ispan tilining ijtimoiy-madaniy jihatlarini o'rganish jarayonida interfaollik va kommunikativlikning yetarli emasligi. Talabalarni ispan tilidagi asl kommunikativ vaziyatlarga faol jalb qilmaslik ularning ijtimoiy-madaniy kompetentligi sohasida

rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Rolli o'yinlar, munozaralar, simulyatsiyalar va boshqalar kabi ko'proq interaktiv usullar kamdan-kam uchraydi yoki dars paytida ishlatilmaydi.

3. Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning O'zbekiston oliv ta'lim dasturlariga integratsiyalashmaganligi. O'zbekiston oliv o'quv yurtlari talabalarini tayyorlash har doim ham ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish va ijtimoiy-madaniy jihatlarni o'quv dasturlariga integratsiyalashuviga e'tibor qaratmaydi. O'quv dasturlar odatda lingvistik va grammatik kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ispan tilida so'zlashadigan mamlakat madaniyatini o'rganish va tushunish uchun o'quv soatlari kam ajratilgan.

4. Asl vaziyatlarda tilni amaliy qo'llash uchun materiallar va imkoniyatlardan foydalanish imkoniyati cheklangan. Filmlar, teleshoular, musiqa, jurnallar va boshqalar kabi asl materialarning yetishmasligi talabalarga ispan madaniyatiga sho'ng'ish imkoniyatini cheklaydi. Asl vaziyatlarda tildan foydalanishning amaliy qobiliyatining yo'qligi, shuningdek, ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishni qiyinlashtiradi.

5. Talabalarni ispan tilining ijtimoiy-madaniy jihatlarini faollashtirishga va mustaqil o'rganishga jalb qilmaslik. An'anaviy o'qitish usullari odatda til va madaniyatning ijtimoiy-madaniy jihatlarini faol va mustaqil o'rganishga emas, balki ma'lumotni passiv o'zlashtirishga qaratilgan. Talabalarga ko'pincha ijtimoiy-madaniy bilim va ko'nikmalarni mustaqil o'rganish, tadqiq qilish va mashq qilish uchun yetarli imkoniyatlar berilmaydi.

O'zbekiston oliv o'quv yurtlari talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishdagi aniqlangan muammolarni tahlil qilish an'anaviy o'qitish usullaridan foydalangan holda ispan tilining ijtimoiy-madaniy jihatlarini o'rganishda talabalar duch keladigan asosiy qiyinchiliklarni tushunishga imkon beradi. Ushbu natijalar O'zbekiston oliv o'quv yurtlari talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini samarali rivojlantirish uchun innovatsion didaktik vositalar bo'yicha tavsiyalar va takliflarni ishlab chiqish uchun tadqiqotning keyingi bo'limlarida qo'llaniladi.

Ushbu muammolarni hal qilishning mumkin bo'lgan usullari quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- ijtimoiy-madaniy kompetentlikni ispan tili o'quv dasturlariga integratsiya qilish, shu jumladan, ispan tilining ijtimoiy-madaniy sohasiga bag'ishlangan maxsus modullar yoki kurslarni ishlab chiqish;

- ispan madaniyati kontekstida tilni amaliy qo'llash uchun filmlar, musiqiy kompozitsiyalar, matnlar va boshqalar kabi haqiqiy materiallardan faol foydalanish;

- talabalarga ijtimoiy-madaniy bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llash imkonini beruvchi rolli o'yinlar, munozaralar va boshqa faoliyatni o'z ichiga olgan kommunikativ yo'naltirilgan ta'lim usullarini qo'llash;

— ispan tilining ijtimoiy-madaniy sohasida o‘z bilimlari va tadqiqotlariga erishish orqali talabalarning mustaqilligini rivojlantirish.

Umuman olganda, ushbu chora-tadbirlar talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini faol ravishda rivojlantirishga hamda ispan tili va madaniyatini o‘rganish uchun yanada samarali ta’lim muhitini yaratishga imkon beradi.

Ispanzabon mamlakatlar madaniyatini o‘rganish qo‘sishma innovatsion usullar bilan boyitilishi mumkin. Quyida bir nechta quyidagi usullar taklif etiladi:

1. Virtual ekskursiyalar immersiv madaniy ekskursiyalarni yaratish uchun virtual haqiqat yoki kengaytirilgan haqiqatdan foydalanishga asoslangan usuldir. Talabalar ispanzabon mamlakatlarning virtual muzeylari, galereyalari va tarixiy joylariga tashrif buyurishlari, eksponatlarni o‘rganishlari, ularni turli rakurslardan ko‘rib chiqishlari va madaniy jihatlar haqida batafsil ma’lumot olishlari mumkin.

2. Onlayn jamoaviy ijod. Ushbu usul talabalarga ispan madaniyati bilan bog‘liq loyihalarni birgalikda yaratish uchun onlayn platformalar va vositalardan foydalanishni taklif qiladi. Masalan, talabalar qo‘shma veb-saytlar, bloglar, video taqdimotlar, multimedia ishlarini yaratishlari yoki ispan madaniyatining muhim jihatlari to‘g‘risida birgalikda maqolalar yozishlari mumkin.

3. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish. Talabalar ispan madaniyatiga bag‘ishlangan ijtimoiy media guruhlari va jamoalarini yaratishlari mumkin. Bunda ular o‘z tadqiqotlari bilan o‘rtoqlashishlari, madaniyatning qiziqarli jihatlarini muhokama qilishlari, materiallar almashishlari, ispanzabon mamlakatlar bilan bog‘liq postlarni ko‘rib chiqishlari va sharhlashlari mumkin.

4. Multimedia loyihalari va videolari. Talabalar ispanzabon mamlakatlarning madaniyati va urf-odatlari haqida videofilmlarni o‘z ichiga olgan multimedia loyihalarini yaratishlari mumkin. Ular ispan tilida so‘zlashadigan mamlakatlar tili va madaniyatining multimedia imkoniyatlaridan foydalanishga yordam beradigan sayohat filmlari, mahalliy aholi bilan suhbatlar, ispan tadbirlari reklamalari va boshqa videomateriallarni yaratishi mumkin.

Ushbu innovatsion usullar talabalarga ispanzabon mamlakatlar madaniyatini yanada interfaol tarzda o‘rganish imkonini beradi. Ular tadqiqot materiallari bilan faol hamkorlikni ta’milagan holda jamoaviy ish uchun imkoniyatlar yaratadi hamda talabalarning ijodiy va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Keyinchalik aniqlangan muammolar va oldingi tadqiqotlar tahviliga asoslangan ba’zi tavsiyalar taklif etiladi:

1. Innovatsion ta’lim muhitini yaratish. Talabalar yangi texnologiyalar va o‘qitish usullarini qo‘llashlari mumkin bo‘lgan zamonaviy kabinetlar, laboratoriylar, media markazlarni yaratish.

2. Raqamli texnologiyalardan foydalanish. Interfaol elektron o‘quv materiallari, onlayn kurslar, multimedia taqdimotlari, vebinlar va video materiallarni joriy etilishi talabalarga interfaol

o‘yinlar va ekskursiyalar orqali turli madaniyatlar, urf-odatlar va tarixiy voqealarni o‘rganishga imkon beradi.

3. Muammoga yo‘naltirilgan ta’limni qo‘llash. Talabalarga innovatsion yechimlar va ijodiy fikrlashni talab qiladigan murakkab vazifalar taklif etilishi jamoaviy ko‘nikmalarni, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

4. Tajriba va bilim almashish uchun ijtimoiy media va platformalardan faol foydalanish. Talabalarga o‘z bloglarini yaratish, munozara guruhlari, forumlar va loyiha jamoalarida ishtirok etish taklif etiladi. Bu yerda ular o‘z fikrlarini baham ko‘rishlari va hamkasblaridan fikr-mulohazalarini olishlari mumkin.

5. Innovatsion loyihalar va amaliyotlarni tashkil etish. Talabalarga olingan bilim va ko‘nikmalarni amaliy faoliyatda qo‘llashga yordam beradigan haqiqiy loyihalar va amaliyotlarda, shu jumladan, ko‘rgazmalar, anjumanlar, madaniy tadbirlar va boshqalarda ishtirok etish taklif etiladi.

6. Qo‘llab-quvvatlash va individual yondashuv. Talabalarni qo‘llab-quvvatlash va ularga innovatsion o‘qitish usullarini o‘zlashtirish jarayonida yordam berish muhimdir. Ijtimoiy-madaniy kompetentligini o‘rganishga undash uchun talabalarning individual xususiyatlarini va ularning qiziqishlarini hisobga olish kerak.

7. Baholash va teskari aloqa. Innovatsion o‘qitish usullarini qo‘llash natijalariga ko‘ra tizimli baholash va fikr-mulohazalarni amalga oshirishi talabalarning ehtiyojlari va muvaffaqiyatlarini hisobga olgan holda o‘qitish usullarini takomillashtirish va moslashtirishga yordam beradi.

Talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish uchun innovatsion o‘qitish usullarini joriy etish o‘quv jarayoni va ta’lim muassasalari infratuzilmasini o‘zgartirishni talab qiladi. Biroq bunday harakatlar talabalarga bugungi jamiyatda muvaffaqiyat qozonish uchun muhim bo‘lgan ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va jamoada ishslash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

**Xulosa.** O‘zbekiston madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan va talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishga ko‘maklashadigan ispan tilini o‘qitishning yangi metodikalarini ishlab chiqish muayyan tadqiqot va ishlanmalarni talab etadi. Bunday usullarga kiritilishi mumkin bo‘lgan ba’zi g‘oyalarni keltiramiz:

1. Madaniy moslashuv. O‘zbek madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini ko‘rib chiqqan holda, ularni ispan madaniyati bilan bog‘lash juda muhim. Talabalarga o‘zbek madaniyati, urf-odatlari, an‘analari va ispan madaniyati bilan aloqalari to‘g‘risida ma’lumot olishga yordam beradigan topshiriqlar va o‘yinlarni tashkil qilish mumkin. Misol uchun bunga o‘zbek va ispan taomlarini o‘rganish, mehmondo‘stlik yoki oilaviy hayotdagi o‘xshashliklar va farqlarni tadqiq qilish kiradi.

2. Samarali hamkorlik. Ispan tilida talabalar o‘rtasida faol muloqot qilish uchun muhit yaratish lozim. Bu tarzda ular olingan

bilimlarini real vaziyatlarda, rolli o‘yinlarda yoki loyihalarda qo‘llashlari mumkin. Madaniy mavzularni muhokama qilishni, ispan tilida o‘zbek madaniyati haqidagi taqdimotlarni yoki ispan va o‘zbek madaniyatining mushtarak va farqli xususiyatlarini taqdim etadigan jamoaviy loyihani yaratishni talab qiladigan topshiriqlardan foydalanish mumkin.

3. Asl materiallardan maqsadli foydalanish. O‘quv jarayoniga ispan va o‘zbek madaniyatlarining turli jihatlariga taalluqli maqolalar, videoyozuvlар, ispan tilidagi qo‘shiqlar kabi ko‘proq haqiqiy materiallarni kiritish kerak. Ushbu materiallarni ijtimoiy-madaniy naqshlar nuqtai nazaridan tushuntirib, turli madaniyatlarni tushunish, moslashtirish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

4. Virtuallashtirish va onlayn ta’lim. Ispan tilini o‘rgatish uchun virtual platformalar va onlayn resurslar imkoniyatlaridan foydalanish zarur. Bunga interaktiv darslar, onlayn o‘yinlar, vizual va audio materiallar kirishi mumkin. Talabalar ispan madaniyati va tili bilan o‘zaro aloqada bo‘lishlari mumkin bo‘lgan virtual muhitni yaratish ularning faol ishtiroki va motivatsiyasini oshirishi mumkin.

5. Ispan madaniyatiga real “sho‘ng‘ish”. Ispanzabon mamlakatlarda talabalar almashinushi yoki qisqa muddatli ispan tili bo‘yicha stajirovkalarini tashkil qilish juda muhim. Bunday tajriba talabalarga ispan madaniyatiga sho‘ng‘ish, ispan tili sohiblari bilan muloqot qilish, ispan tilini chuqurroq o‘rganish va ispan muhitni bilan bevosita aloqada o‘zlarining ijtimoiy-madaniy kompetentliklarini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

6. Sayyor ma’ruzalar va mahorat darslari. Ispan madaniyati vakillari, ispan tilida so‘zlashuvchilar yoki ispan adabiyoti, san’ati va tarixi bo‘yicha mutaxassislar bilan sayyor ma’ruzalar va mahorat darslarini tashkil qilish mumkin. Bunday mashg‘ulotlar talabalarga ispan madaniyati vakillari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qilish, ularning fikrlarini eshitish va o‘z savollari bilan bo‘lishish imkonini beradi. Ushbu tadbirlar nafaqat talabalarning bilimlarini kengaytiribgina qolmay, balki ularning ispan tili va madaniyatiga bo‘lgan qiziqishini va motivatsiyani ham oshiradi.

7. Tadqiqot loyihalari, ya’ni talabalarni o‘zbek madaniyati kontekstida ispan madaniyati va tili bilan bog‘liq tadqiqot loyihalarini amalga oshirishga undash. Bunga madaniy me’yorlar va qadriyatlardagi o‘xhashlik va farqlarni o‘rganish, ispan va o‘zbek san’ati yoki adabiyotining bir-biriga ta’sirini tahlil qilish kiradi. Bunday loyihalar talabalarga madaniyatlar o‘rtasidagi aloqalarini chuqurroq tushunishga va baholashga hamda o‘z bilimlarini amalda qo‘llashga yordam beradi.

8. Kommunikativ hamkorlik. O‘zbekistonlik talabalar va ispan tilida so‘zlashadigan mamlakatlar talabalarini o‘rtasida kommunikativ hamkorlik aloqalarini o‘rnatish lozim. Bunday hamkorlik yozma muloqot, video anjumanlar yoki audio yozuvlarni almashish shaklida bo‘lishi mumkin. Ushbu faoliyat talabalarga ispan tilini mashq qilish, ispan tili sohiblari bilan muloqot qilish va

ispan madaniyati haqida ko‘proq ma’lumotni bilish imkonini beradi.

9. Muntazam o‘z-o‘zini baholash va teskari aloqa, ya’ni talabalarga ispan tilida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishdagi yutuqlarini muntazam ravishda baholash imkoniyatini berish. O‘qituvchilar va kursdoshlarning fikr-mulohazalari talabalarga o‘zlarining yutuqlari va takomillashtirish sohalarini tushunishga yordam beradi. O‘z-o‘zini muntazam ravishda baholash ularga o‘zlar oldida real maqsadlar qo‘yishga va o‘z qobiliyatlari ustida ishslashni davom ettirishga imkon beradi.

Ushbu takliflar O‘zbekistonning madaniy xususiyatlarini inobatga oladigan va talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirishga ko‘maklashadigan ispan tilini o‘qitishning yangi usullarini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

1. An’anaviy o‘qitish usullari orqali O‘zbekiston oliv o‘quv yurtlari talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish ta’lim sohasida dolzarb muammo hisoblanadi. Ispan tili madaniyatlarnaro muloqot nuqtai nazaridan alohida qiziqish uyg‘otishi sababli tadqiqot materiali sifatida tanlangan.

2. Tadqiqot davomida O‘zbekiston oliv o‘quv yurtlari talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishdagi asosiy muammolar aniqlandi, shu jumladan, ijtimoiy-madaniy jihatlarga yetaricha e’tibor bermaslik, interfaol o‘qitish usullarining yetishmasligi va ispan tilini o‘rganish uchun resurslarning cheklanganligi kiradi.

3. Tadqiqot O‘zbekiston oliv o‘quv yurtlari talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish uchun o‘qitishning innovatsion usullarini joriy etish muhimligini ta’kidlaydi. Ular talabalarga ispan tili va madaniyati bilan faol aloqada bo‘lish, madaniyatlarnaro muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda til va madaniy to‘sqliarni yengib o‘tish imkonini beradi.

4. Ushbu sohadagi keyingi tadqiqotlar innovatsion ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish, ularning samaradorligini baholash va ijtimoiy-madaniy jihatlarni hisobga olgan holda ispan tilini o‘qitish sifatini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishni o‘z ichiga olishi mumkin.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Болдырева Т.В. Социокультурная компетенция как составляющая иноязычной коммуникативной и межкультурной компетенций в обучении иностранному языку // Вестник Сургутского государственного педагогического университета. 2011. № 4. — URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sotsiokulturnaya-kompetensiya-kak-sostavlyayuschaya-inoyazychnoy-kommunikativnoy-i-mezhkulturnoy-kompetentsiy-v-obuchenii> (murojaat sanasi: 12.10.2023).

2. Игна О.Н. Социокультурный аспект обучения иноязычному общению студентов неязыковых факультетов на основе аутентичных материалов. Томск: ТГУ, 2019. — 150 с.
3. Коннова З.И., Семенова Г.В. Формирование социокультурной компетенции студентов на занятиях по иностранному языку // Известия ТулГУ. Гуманитарные науки. 2018. № 4. — URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-sotsiokulturnoy-kompetentsii-studentov-na-zanyatiyah-po-inostrannomu-yazyku> (murojaat sanasi: 12.10.2023).
4. Малютина Е.А., Оберемко О.Г. Проблема развития культурной самоидентичности при овладении иностранным языком взрослыми // Вестн. Том. гос. ун-та. 2020. № 460. — URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/problema-razvitiya-kulturnoy-samoidentichnosti-pri-ovladenii-inostrannym-yazykom-vzroslymi> (murojaat sanasi: 12.10.2023).
5. Санникова С., Пахомова Н. Состояние проблемы развития социокультурной компетенции специалиста на современном этапе // Sciences of Europe. 2019. № 45-4 (45). — URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sostoyanie-problemy-razvitiya-sotsiokulturnoy-kompetentsii-spetsialista-na-sovremennom-etape> (murojaat sanasi: 12.10.2023).
6. Слепцова Г.Н. Проблема формирования социокультурной компетентности студентов в процессе обучения иностранным языкам в неязыковом вузе // Ученые записки университета Лесгафта. 2010. №9 (67). — URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/problema-formirovaniya-sotsiokulturnoy-kompetentnosti-studentov-v-protsesse-obucheniya-inostrannym-yazykam-v-neyazykovom-vuze> (murojaat sanasi: 12.10.2023).

### References

1. Boldireva T.V. *Vestnik Surgutskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta*, 2011, No 4, available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/sotsiokulturnaya-kompetensiya-kak-sostavlyayuschaya-inoyazichnoy-kommunikativnoy-i-mezhkulturnoy-kompetentsiy-v-obuchenii> (October 12, 2023).
2. Igná O.N. *Sociokulturniy aspekt obucheniya inoyazichnomu obsheniyu studentov neyazikovih fakultetov na osnove autentichnih materialov* (Socio-cultural aspect of teaching foreign language communication to students of non-linguistic faculties based on authentic materials), Tomsk: TSU, 2019, 150 p.
3. Konnova Z.I., Semyonova G.V. *Izvestiya TulGU. Gumanitarnye nauki*, 2018, No. 4, available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-sotsiokulturnoy-kompetentsii-studentov-na-zanyatiyah-po-inostrannomu-yazyku> (October 12, 2023).
4. Malyutina E.A., Oberemko O.G. *Vestn. Tom. gos. un-ta*, 2020, No 460. 2020, available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/problema-razvitiya-kulturnoy-samoidentichnosti-pri-ovladenii-inostrannym-yazykom-vzroslymi> (October 12, 2023).

5. Sannikova S., *Sciences of Europe*, 2019, No. 45-4 (45), available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/sostoyanie-problemy-razvitiya-sotsiokulturnoy-kompetentsii-spetsialista-na-sovremennom-etape> (October 12, 2023).
6. Sleptsova G.N. *Uchenye zapiski universiteta Lesgafta*, 2010, No 9 (67), 2010, available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/-problema-formirovaniya-sotsiokulturnoy-kompetentnosti-studentov-v-protsesse-obucheniya-inostrannym-yazykam-v-neyazykovom-vuze> (October 12, 2023).